

Ilmiy ishlanmalarni tijratlashtirish

Joriy yil 16–18-sentyabr kunlari Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan O'zbekistonda ilk bora qishloq xo'jaligi sohasida tijratlashtirishga tayyor bo'lgan ilmiy ishlanmalar ko'rgazmasida O'zR FA Mikrobiologiya instituti tuproqning sog'lomlashishi va o'simliklarning hosildorligini oshiruvchi ekologik toza "Yer malhami", o'simliklarning o'sishi va hosildorligini oshiruvchi "BIST", chorvachilikda omuxta yem qo'shimchasi va silos achitqisi sifatida qo'llaniluvchi "Trixostim", fungitsidlik xususiyatiga ega bo'lgan, o'simliklarning o'sib-rivojlanishini tezlashtiruvchi "Mikroo'stirgich", qishloq xo'jaligi o'simliklarining hosildorligi va tuproq unumdorligini oshirishning yangi texnologiyasi "AZO—UZ", yem-hashak ekinlarini konservatsiya qilish va tayyorlash uchun "IMBIOKON" biopreparatlari, don va dukkakli ekinlar o'sishi va rivojlanishini jadallashtiruvchi, kasalliklarini oldini oluvchi "MICROZYME-1", paxta va yopik urugli ekinlar hosildorligini oshirish va kasalliklariga qarshi kurashish uchun "MICROZYME-2" enzimli organik o'g'it-biostimulyatori, chorvachilik sohasi uchun ixtisoslashgan "Baktovit" probiotik ozuqa qo'shimchasi bilan,



FA Genomika va bioinformatika markazi "G'o'zaning vilt kasalliklariga chidamli biotexnologik navlarini olish", "Markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) - bu yangi va yuqori sifatli g'o'za navlarini yaratishning tezlashtirilgan va samarali texnologiyasi", "Bug'doyda (*Triticum aestivum* L.) PHY A 1 genining RNA—interferentsiyasi texnologiyasi yordamida xosildorligi yuqori bo'lgan yangi biotexnologik liniyalar yaratish", "Gen-nokaut texnologiyasi yordamida agronomik xususiyatlari yaxshilangan kartoshkaning (*Solanum tuberosum* L.) yangi biotexnologik navlari" ishlanmalari bilan,



FA Bioorganik kimyo instituti "Biosolvent", "Dag" preparatlari, pomidor, kartoshka va bir qancha mevalar uchun feromon tutqichlari bilan,



FA Navoiy bo'limi esa bentonit gillaridan foydalanib qobiqlangan chigit urug'larini ishlab chiqarish va paxtachilikda joriy qilish, bentonitli suspenziya bilan g'o'zani bargidan oziqlantirishga qaratilgan ilmiy-tajriba ishlari, cho'l chorvachilik va o'simlikshunoslik seleksion tizimini takomillashtirish, adir yerlarda tok o'simligini tomchilatib sug'orish uslubida yetishtirishning istiqbollari ishlanmalari bilan ishtirok etdi.



Ushbu ko'rgazma oddiy aholi, olim va tadbirkorlar uchun foydali va samarali bo'lib, respublikamizning turli viloyatlari fermer va tomorka xo'jaliklari boshliqlari bilan uchrashuvlar, buyurtmalar, kelgusi xo'jalik shartnomalari tuzish uchun dastlabki kelishuvlar olib borildi.